

FARZAND TARBIYASI KONTEKSTIDA OTA-ONA FENOMENINING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada farzand tarbiyasi kontekstida ota-ona munosabatlarning namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek ota-ona fenomeni jamiyatda yetakchi o`rinda ekanligi hamda ilm-fan nuqtai nazaridan muhim ekanligi g‘oyasi ilmiy dalillar asosida tasdiqlangan.

Kalit so‘zlar: Fenomen, urf-odatlar, kontekst, qarama-qarshiliklar, ideal ota, stereotiplar, mehr-muhabbat, kognitiv rivojlanish, gender tafovutlar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФЕНОМЕНА ВОСПИТАНИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna
Доцент Бухарского государственного университета

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические методологические основы исследования проявления и развития родительских отношений в контексте воспитания ребенка и совершенствования его специфических социально-психологических факторов. Также на основе научных данных подтверждается идея о том, что феномен родительства занимает ведущее место в обществе и важен с научной точки зрения.

Ключевые слова: феномен, обычаи, контекст, противоречия, идеальный отец, стереотипы, привязанность, когнитивное развитие, гендерные различия.

THEORETICAL METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE PARENT PHENOMENON IN THE CONTEXT OF CHILD EDUCATION

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna
Associate professor of Bukhara State University

Annotation: this article reflects on the theoretical methodological foundations of the study of the manifestation and development of parental relationships in the context of child education and the improvement of its specific socio-psychological factors. Also, the idea that the parent phenomenon is in the leading position in society and is important from the point of view of science is confirmed on the basis of scientific evidence.

Keywords: phenomenon, customs, context, contradictions, ideal father, stereotypes, affection, cognitive development, gender differences.

KIRISH. XXI asrni dekadasining o‘zi, insoniyatning yashash tarzi, urf-odatlari va ming yillik qadriyatlariga ta’sir qiladigan yangi hayot shaklini olib kirdi. Bu esa, o‘z navbatida, oilaviy munosabatlarga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Natijada, turli ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy omillar, bir so‘z bilan aytganda arzimagan sabablar orqali ajrimlar soni ortganini ko‘rish mumkin. Yoshlardagi oila, nikohga bo‘lgan munosabatlarni hech qanday qadriyatlar bilan bog‘lanmaganlik holatlari ko‘paydi. Hatto bir nechta farzandlari bor bo‘lgan oilalarda ham ajrimlar bo‘lmoqda. Bu esa farzandlarni otasiz yoki onasiz ulg‘ayishiga majbur qilmoqda. Otasiz yoki onasiz o‘sayotgan bolalar sonining ko‘paymasligini oldini olish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Insonga suv va havo qanchalik zarur bo‘lsa, farzanda ota ham, ona ham shunday maqomga ega. Ushbu maqolamiz orqali farzandga ota obrazi naqadar kerak ekanligi, farzandning otadan oladigan psixologik kuchini yoritib berishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Jahon miqiyosida oilada ota-ona va farzandlar orasidagi munosabatlarining hozirgi davrga kelib zaiflashib borayotganligi deyarli ko‘pchilik mamlakatlarda: Amerika ko‘shma shtatlari, Angliya, Fransiya, Germaniya, Boltiq bo‘yi davlatlari, Rossiya va boshqa qator davlatlarda yaqqol namoyon bo‘layotgani achinarlidir. O‘zbek oilalari hayotida ota-ona va farzandlar orasidagi munosabatlarining zaiflashuvi qayd etilgan davlatlardagiga qaraganda ancha kam bo‘lsa-da, afsuski kelajak avlod tarbiyasiga e’tiborsiz bo‘lish nihoyatda ayanchli oqibatlar, noxush holat va hodisalar keltirib chiqarayotganligi kuzatilmogda.

Dunyo integratsiyalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida ijtimoiy munosabatlardagi global o‘zgarishlar oila instituti, uning mavqeい, tarkibi, tuzilishi, funksiyasi, vazifalari va faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugun ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda oila an’analaring ota-onalar farzandlarning orasidagi munosabatlarga yondoshuv keskin o‘zgarayotganligi natijasida ota-onalar qaramog‘isiz qolayotgan farzandlar soni ortib borayotgani bois, butun dunyoda oila manfaatlari kafolatlarini yangi mazmunda ta’minlashning institutsional asoslarini takomillashtirish zaruratga aylanmoqda. Shunday ekan, farzand tarbiyasi kontekstida ota-onalar fenomenini kompleks o‘rganish, ularning hali yaxshi o‘rganilmagan ijtimoiy va etnopsixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etish jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Jahon olimlar tomonidan oila psixologiyasi borasida bir qancha izlanishlar olib borilgan. Z.Freyd, Lourens Stoun, A. Adler, K. Xorn, K.Rodjers, G.Sele, Dayan Vagen, Robert Veyss, Judet Vallerstayn, Jon Kelli, Y. Burgess, G.Rolandlarning olib borilgan ilmiy izlanishlarida farzand tarbiyasi kontekstida ota-onalar fenomenini to‘g‘risida sharhlar berilgan .

NATIJALAR. O‘zbek mentalitetida oila ma’naviyati va madaniyati asrlar davomida o‘ziga xos tarzda shakllangan. Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoyilik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi.Oilada farzandlarni oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy bilan ta’minlash ota burchi hisoblanadi. Murg‘ak g‘o‘daklarni, oila a‘zolarini halol, pok narsalar bilan boqish va kiyintirish ota ma’suliyatidir. Bu esa, ularning ertaga barkamol inson sifatida ulg‘ayishida va o‘zligini anglashda asosiy zamin bo‘ladi. Inson zotida doimo mehr-muhabbatga ehtiyoj bo‘ladi. Ayniqsa, yosh bolalar bunga muhtoj. Shu ehtiyojlarni qondirishda ota obrazi alohida o‘ringa ega. Insonga avloddan avlodga o‘tib keladigan turli psixologik xususiyatlar bizning tushunchamiz bo‘yicha genlar orqali o‘tadi deb bilamiz. Ushbu xodisani psichoanaliz maktabi namoyondalaridan biri K.G.Yung o‘rgangan. Uning fikricha, inson ongida turli arxetipler mavjud bo‘lib, u shaxsning kamol topishida muhim rol o‘ynaydi deb hisoblaydi. Ulardan biri ota arxetipidir. Ota arxetipining asosiy funksiyasi ong ostida qarama qarshiliklarni bartaraf etish va turli xil ongsiz voqealarni aniqlashdan iborat . K.G.Yung “Qarama-qarshiliklarsiz ong bo‘lmaydi”, deb ta’kidlaydi. Ong ostida qarama-qarshiliklar, kurashlar doimo bo‘ladi. Bu otalik funksiyasi bo‘lib, u farzandda “onaning qornidagi asosiy kundan boshlab iliqlikka talpinish va zulmatdan o‘zini ozod qilishga abadiy intilish”dan boshlab, hayot bilan kurashish kabi xususiyatlarni vujudga keltiradi. Bu esa ota arxetipi orqali shakllanadi. Farzand dunyoga kelgandan so‘ng, ushbu xususiyat xarakter shaklida namoyon bo‘lganida, ya’ni qat’iyatlilik, muammolarga bardoshlilik va hayotning turli zarbalariga chidamli inson bo‘lishi uchun oilda ota rolining bo‘lishi juda muhim hisoblanadi .

Shaxsning aqliy rivojlanishida ota qanday rol egallashini tushunish ko‘p jihatdan ijtimoiy-madaniy kontekstga bog‘liq. Erkaklar va ayollar ideal ota haqida o‘xshash fikrlarga ega bo‘lib, ular otasi bilan o‘zaro munosabatlarning haqiqiy tajribasiga emas, balki bu tarixiy rivojlanish bosqichida jamiyatdagi stereotiplarga bog‘liqligini ko‘rsatgan. Insoniyat tarixi davomida turli davrlarda otaning farzand tarbiyasidagi o‘rni doimo o‘zgarib borgan. G‘arb sivilizatsiyasining dastlabki tarixiy bosqichida, matriarxat hukmronligi davrida otaning roli faqat urug‘lantirish (bola) bilan cheklangan edi. Qadimgi davrlaridan boshlab ota o‘z farzandlari va xotini ustidan hukmronlikka ega bo‘la boshladi, uning oiladagi mavqeい avtoritar xususiyatga ega bo‘lib bordi. Patriarxal madaniyat ayol va erkaklardagi fenomenning rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi omillar sifatida qayd etilib, mazkur madaniyatning asl holati sifatida ota-qiz munosabatlari haqida mulohaza yuritiladi. Ijtimoiy madaniyatning rivojlanishi davomida ota roldagi o‘zgarishlar ham, bu o‘zgarishlarga munosabat ham o‘zgardi. Tarixiy davr otalarning haddan ortiq hukmronligini jilovlashga muvaffaq bo‘lsa-da, lekin baribir erkaklarning ustuvorlik rolini cheklay olmagan.

Olimlarning ta’kidlashicha, bolaning ota-onasi bilan erta munosabatlari xarakteri va uning ota-onasiga bog‘liqlik sifati o‘smirlilik davridagi hissiy holati va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘smirlar ham ota-onalaridan mehr-muhabbat, uning shaxsiga qiziqish, ishonch, tan olish va ma’qullah, avtonomiyalarini rag‘batlantirishga kuchli ehtiyoj sezadilar. Oila psixoterapiyasining paydo bo‘lishi ota rolini o‘rganishga yondashishni yanada yaxlitroq, oila tizimi sharoitida amalga oshirish imkonini berdi. Endi ota nafaqat boquvchi, balki uning oiladagi hamroh, himoyachi va turmush o‘rtoq kabi rollari ham tadqiqotchilar e’tiboriga tushdi.

Farzandning otasi haqidagi fikrlari turli yoshda turlichcha bo‘ladi.

Besh yoshida – “Otam hamma narsani biladi”. O‘n yoshida – “Otam ko‘p narsani biladi”. O‘n besh yoshida – “Men ham otamchalik bilaman”. Yigirma yoshida – “To‘g‘risini aytsam, otam hech narsani bilmaydi”. O‘ttiz yoshida – “Har holda, otam uncha muncha narsani biladi”. Qirq yoshida – “Otamning fikrini ham bilsam yomon bo‘lmas edi”. Ellik yoshida – “Otam hamma narsani tahlil qilib biladi”. Oltmish yoshida – “Qaniydi, otam tirik bo‘lganida, ular bilan maslahatlashgan bo‘lar edim”. Yuqoridagi umr davrlardan ko‘rinib turibdiki, ota farzand uchun doimo yelkadosh, maslahatgo‘y

bo‘lar ekan. To‘liq oilalarning farzandlari yuqoridagi fikrlarni ayta olishi imkoniga ega ekanligini ham eslatib o‘tish darkor. Ota uchinchi shaxs sifatida “ona-bola” ikkiligini to‘ldiradi va onadan ajralish jarayonining normal kechishiga yordam beradi.

Bola ona bilan dastlabki simbiotik munosabatlarni muvaffaqiyatli yengib o‘tishi uchun ota quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi kerak:

ona va bola uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lish;
bolaga nisbatan onadan ko‘proq masofa, bola ehtiyojlariga sezgirlik.

Bola biringchi “ota” haqida qachon bilishi borasida taxminlarni ilgari suruvchi bir qator tadqiqotlar mavjud. Psixoanalizning ba’zi vakillari bolaning otasi haqidagi ongsiz bilimlari haqida gapishtadi. K.G. Yung psixologiyada bu hodisani ota va ona arxetiplarining tug‘ma mavjudligi bilan izohlaydi. Bu intuitiv bilimlar otaning dastlabki obrazini shakllantiradi, bu tufayli keyinchalik ota-bola o‘zaro ta’sirini kengaytirish hisobiga asosiy obraz hosil qilinadi. Ona bolaga otaning birlamchi ramziy tasavvurini shakllantirishga yordam beradi, bu esa uning kognitiv rivojlanishiga qo‘sishma ravishda ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Onalik psixologiyasi zamonaviy fanning eng murakkab va kam rivojlangan sohalaridan biridir. Uni o‘rganishning dolzarbli tug‘ilishning pasayishi bilan bog‘liq. Onalik psixologiyada turli jihatlar, psixologik maktablar va yo‘nalishlarda o‘rganiladi.

Bola tug‘ilishining dastlabki onlaridanoq ona va bola o‘zaro emotsiyal va psixologik jihatdan bog‘langan bo‘lib, uning o‘zini anglashi ana shu hissiy iliqlikning natijasiga ko‘proq bog‘liqdır. Bola ulg‘ayib, katta bo‘lgan sari ular o‘rtasidagi masofa, psixologik distansiya ortib boraveradi, simbioz munosabatlari aqliy-kognitiv munosabatlari shaklidagi psixologik aloqalarga aylanib ketaveradi, ya’ni bolada o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlarning shakllanishiga turtki bo‘luvchi ijtimoiy omillar ko‘lami ortib boraveradi. Shunisi muhimki, bola uchun har qanday g‘amxo‘r va mehribon inson unga ona o‘rnini bosishi mumkin (buvisi, otasi, enagasi). Lekin kimningdir doimiy g‘amxo‘rligi, ya’ni mehribon insonning – “ob‘ektning” doimiyligi bola rivojlanishi uchun o‘ta muhim hisoblanadi. Bola bir yoshga to‘lgunga qadar bo‘lgan davr noverbal va ekstrolingvistik muloqot davri bo‘lib, undagi barcha o‘zgarishlar onasi yoki yaqinlari bilan bo‘ladigan emotsiyal, bevosita munosabatlarning natijasi bo‘ladi va bora-bora muomalaga til hamda tovushlar bilan bog‘liq belgilar kirib kelaboshlaydi. “Onaning barcha sa’yi-harakatlari bu davrda bola psixik rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi”, deb yozadi V. Karimova. V. Karimo vaning ta’kidlashicha, “Oilaviy munosabatlarning eng ta’sirli, jozibali va muhim bo‘lagi – bu ona-bola munosabatlaridir. Ularning muhimligi shundaki, ayni dastlabki muloqot va mehrli munosabatlari bolaning keyingi psixik va aqliy taraqqiyotini hamda onaning xulq-atvorini belgilaydi”.

Agar ota va ona tomonidan ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik doimiy va samimi bo‘lsa, bu E. Erikson ta’biri bilan aytganda, “mutloq ishonch”ga asos bo‘ladi. Ya’ni haqiqiy, g‘amxo‘r ona bolasining ayni paytdagi barcha ehtiyojlarini qalban his qilib, o‘sha zahoti qondirishga harakat qiladi, masalan, chanqasa suv, och qolsa – ko‘krak suti, peshob qistaganda to‘sish kabi ishlarni o‘z vaqtida bajarib boradi. Onaning bola ehtiyojlarini shu kabi aniq bilib, o‘z vaqtida mehr ko‘rsatishi ba’zan intuitiv tarzda kechsa, ba’zan ona o‘zini bola bilan identifikasiya qiladi, ya’ni o‘zini bolaning o‘rniga qo‘yish orqali, uning talab-istiklarini sezganday bo‘ladi, “vujudi bilan his etadi”. Bunday his qilishlar odatda ona tomonidan aniq anglanmaydi, lekin odatda onaning kechinmalari va sezishlari to‘g‘ri chiqadi.

Ota-oni bola oldida birlamchi ijtimoiy ko‘zgu vazifasini bajaradi hamda u bilan muloqotda muhabbat, hurmat va ishonch hislarini namoyon qilgan holda shu tariqa bolaga o‘zi haqida ushbu hissiyotlarga loyiq bo‘lgan sub’ekt haqidagi tasavvurni singdiradi. Ular tomonidan tashqi nazoratning qattiqligi bolada o‘zini ichki nazorat qilishni rivojlanadir, aniq asoslangan talablar, qat’iy belgilangan va mos keluvchi “Men” obrazi hamda “Men” konsepsiyasining shakllanishiga xizmat qiladi. Demak, onaning hissiy-emotsional yaqinligi o‘z bolasini afzal sifatlar egasi sifatida tasavvur qilishiga imkon beradi.

Oila nafaqat ona, balki ota timsoli bilan ham uyg‘un bo‘lgani hamda bizning yondashuvimiz otalik va onalik maqomlarining farzand tarbiyasi kontekstidagi ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlanganligini inobatga olib, ota-oni orasidagi farq masalasiga ham e’tiborni qaratishimiz va bu boradagi olimlar fikrlariga e’tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Otalik psixologiyasi onalik psixologiyasiga nis batan kam o‘rganilgan soha sanaladi. Oilada otalar xulqini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ular ham g‘amxo‘rlik va samimiylilik jihatidan ayollardan kam emas, kerak bo‘lsa, ulardan ham mehribon bo‘lishlari mumkin. Dastlab ota ham, ona ham bolaga nisbatan bir xil mehribonlik timsolida namoyon bo‘lgani uchun ular o‘rtasidagi farqni kichik yoshdagini bola deyarli his etmaydi. Bir yoshga to‘lgach, bola otasini alohida mustaqil shaxs sifatida idrok eta boshlaydi, o‘zaro munosabatlari triada shakliga o‘tadi. Otasi va onasining o‘zaro munosabatlarini kuzatib, bola tobora ayrim alohida olingan mustaqil,

distansion munosabatlarning ma'nosini tushuna boradi.

Shunga ko'ra barkamol shaxs vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ahllik, ilm va kasbhunarga mehr-muhabbat, adolatlilik, ziyraklik, tashabbuskorlik, e'tiqod va sadoqatlilik, oqibatilik, odoblilikkabi fazilatlarga ega bolishi, shu bilan birga chuqr ilm egallashi, vaqtning qadriga yetishi, xalq udumlari va milliy urf-odatlarini yaxshi bilishi va qadrlashi, diniy ta'limotlarni to 'g 'ri tushunishi, muomala odobi va kiyinish madaniyatiga rioyaqilishi lozimligi uqtirilgan. Bu fazilatlaring aksi bo'lgan nodonlik, badxulqlilik, manmanlik, qo'rqoqlik, yolg' onchilik, odobsizlik, insofsizlik, sabrsizlik, baxillik, kibru havo, hasadgo'ylik, farosatsizlik kabi illatlardan xoli bo'lishi talab etilgan. Ana shu ijobjiy fazilatlani yoshlar tarbiyasiga singdirish va illatlardan yiroq tutish yoki xoli qilish bo'yicha xalq pedagogikasida qator tarbiya metodlari, usul va vositalari mavjud. O'git-nasihat qilish, ibrat-o'rnak ko'rsatish, rag'batlantirish va qoralash kabi metodlarni xalqimiz asrlar davomida qo'llab kelgan bo'lib, uning quyidagi ijobjiy shakllari:

- tushuntirish;
- o'rgatish, mashq qildirish;
- odatlantirish;
- kun tartibini rejalashtirish;
- yaxshi xislat va ishlarga undash;
- istak bildirish;
- maqtash;
- olqish aytish;
- duo qilish;
- alqash;
- tasalli berish;
- mukofotlash, taqdirlash;

O'zbek xalqida bolalarda ijobjiy fazilatlarni, tarbiyani shakllantirish uchun birinchi navbatda oila a'zolari ota-onasi, aka-uka, opa-singil va oilada kattalarga bo'lgan mehr-muhabbat hissini tarbiyalash zarurligiga amal qilingani ko'rindi. Farzandning tarbiyalanishida ota-onalar diniy ta'limotlarga ham alohida ahamiyat berishlari lozim. Diniy tarbiyada bola Vatanga muhabbat bilan ajdodlarga sadoqat ruhida tarbiyalanadi. Bola tarbiyalashda buyuk mutafakkir bobomiz Mirzo Ulugbek shunday deganlar: «Oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim». Shunday ekan, har bir ota-onasi farzandining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan dars berishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozim ekan. Har bir ota-onasi farzand tarbiyasida albatta ota-bobolarning fikrlariga e'tiborli bo'lishlari kerak. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obro'olib keladigan yuzlarini yorug' va boshlarini yuqori qiladigan farzand bo'lib ulg'ayishadi. Ota-onasi bolaning vaqtini to'pa qamrab oladigan zarur va manfaatli mashq'ulotlarni tayyorlashi kerak va ana o'sha mashq'ulotlar bolaning ongini rivojlantirivchi bo'lishi shart.

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sibunayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi. Farzand tarbiasini qachondan boshlamoq kerak, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergen. Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. «Bir bolaga etti qo'shni ota-onasi» degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiyoy tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroqli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. Farzand tarbiyalayotgan ota-onasi har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida oliyjanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlarini sezmagani holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xattihararakat bola tarbiasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzand tarbisida ota-onanining muomalasi muhim o'rinni tutadi. Bola ota-onasi tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan «ma'naviy kasal» insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyat, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir. Farzand tarbiya qilganda odatda o'g'il bolalar tarbiyasi bilan ko'proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug'ullanadi. Albatta bunda farzandning saviyasini inobatga olish muhim. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani ko'rishga shoshmaslik kerak. Masalan ikki yoshgacha faqat shirin so'z bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o'rganadi, asosiy ma'lumotni shu yosh oralig'ida egallaydi. Bu davrda biz ko'proq amaliy jihatdan namuna bo'lishga urinishimiz, sog'lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo'ladi. Oilada otaning bolalariga loqayd bo'lishi oxiri xunuk oqibatlarga sabab bo'ladi. Loqaydlik yomon illat bo'lib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yo'l ochadi. Keyingi davr esa bir oz talabchanlik va intizomni talab etadi. Bu davr o'smirlik payti bo'lib, bola oq-qorani ayni shu davrda ajratadi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichda o'rganadi. Bu davrda farzand to'g'ri yo'lga solinsa, tarbiyalı do'stlarga hamroh qilinsa, uning odobli bo'lib, yaxshi inson bo'lishi uchun muhim qadam qo'yiladi. Odatda onalar o'z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo'l qo'ygan xatolari, qo'l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o'z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoylatlarni ham qo'rmasdan qilaverishi mumkin. Mehr-muhabbat berishda ham me'yorni saqlay bilish kerak. bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to'g'ri-noto'g'ri xatti-harakatlarini ma'qullash yoki xatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo'lib o'sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo'yadi, mehr ko'rsatish esa uni yanada faol bo'lishga undaydi. Erka o'sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko'zlaydigan, ma'suliyatsiz bo'lib voyaga yetadi. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo'lib yetishida onaning xizmati juda zarur va muhimdir. Bolalik chog'ida farzandning qalbi o'ta yumshoq va ta'sirga beriluvchan bo'ladi. Shu bois diniy ta'limotlarda bolalarni mehr bilan erkalash, farzandning bolalik davrini xursand o'tkazishga alohida e'tibor qaratiladi. Diniy ta'limotlarda otaona o'z farzandlariga ta'lim-tarbiya berishi ham dolzarb vazifalardan deb qaraladi. Bu haqda Muhammad (alayhissalom): "Farzandlaringizga ta'lim bering, chunki ular sizniki bo'Imagan vaqt uchun tug'ilganlar", deb har bir ota-onani bolaning o'z zamonasi ilm-fani, ta'limiga befarq qaramaslikka chaqirganlar. Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso'zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo'lib, bolani shakllantiradi. Shu jumladan, ta'limni ham g'azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma'qul. Zero, zo'r lab berilgan ta'lim bola xotirasidan tezda o'chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so'nishi mumkin. Bundan ko'rindiki, ta'limning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi. Tarbiyadan tashqaridan bo'ladigan salbiy ta'sir bu, eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo'l qo'yilmagach, u o'z qiziqish va rag'batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e'tibor qaratishi talab etiladi. Ya'ni, ular farzandi maktabdan keyin qayerga borishi, nima bilan shug'ullanishini nazorat qilish lozim. Farzandiga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir. Otaona farzandiga vaqtini unumli o'tkazishni o'rgatishida vosita sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan usullardan yana biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir. Ushbu zamonaviy kommunikatsiya vositalari muhim aloqa vositalari bo'lishi bilan birga ba'zi ma'naviyati to'liq shakllanmagan yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoq ta'siriga tushib qolgan yoshlarga ota-onalar, o'quv muassasalari bilan birgalikda aloqa vositalarining asl mohiyatini tushuntirib berishlari lozim. Ota-ona bolada estetik tarbiya, go'zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun uni o'zi bilan birga tabiatdagi manzaralni joylarga, muzeylarga olib borishi va shu bilan birga uning qalbida go'zallik latofatini singdirishi juda muhim.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bir yoshlik bola otasi bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni qadrlaydigan, xohlaysidan bo'lib boradi, unga intiladi. Onaning munosabatlaridan farqli, ota bolasining jinsiga qarab o'ziga xos munosabatni o'rnata oladi; o'g'il bolaga erkaklarcha, qiz bolaga boshqacha samimiyat bilan mehr ko'rsata oladi. Shu tariqa bola ning o'z jinsini anglashi, gender tafovutlar to'g'risida tasavvurlar shakllanadi.

XULOSA

Umuman, oilada ota-onaning bo'lishi bolaning ijtimoiy ko'nikmalari shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Buni professor V. Karimova ham o'z kuzatishlariga tayanib tasdiqlagan: Ota-onaning mehri qiz bola uchun ham shu qadar muhimki, u ota-ona munosabatlarini hayoti mobaynida kuzatib borib, kelajakda o'z turmush o'trog'iga qanday munosabatda bo'lish lozim, degan savolga javob topadi. Ona xulqiga qarab esa turmush o'rtog'i bilan baxтиyor yashash uchun qanday bo'lishi

kerak degan savolning mag‘zini chaqadi. Shuning uchun qiz bola uchun ham, o‘g‘il bola uchun ham oilaning butligi, ota-onas munosabatlarining iliq, samimiy, gumanistik bo‘lishi katta hayotiy ahamiyat kasb etadi. Demak, bolaning o‘zini anglashi, qaysi bir jins vakili ekanligini anglashi va hayotiy tasavvurlarining shakllanishida ota-onalik munosabatlarining yaxlit bo‘lishi katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси” ПФ-4947- сон Фармони. - Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. 2017 йил, 6-сон (766). – Б.236.
2. Винникот Д.В. Разговор с родителями. М., 1998. С. 32-88; Обухов Я.Л. Значение первого года жизни для последующего развития ребенка// Обзор концепции Винни кота Д., 1997. 216 с
3. Фозиев Э.Ф. Онтогенез психология: Дарслик. -Т.: “Ношир”, 2010.-360 б.
4. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
5. Шамсиев У.Б. “Боланинг ўзини-ўзи англаш муаммоси” Ўқув-услубий қўлланма “Тафаккур” нашриёти, 2012 йил, 48-бет.
6. Шамсиев У.Б. “Оилавий холдинг – бола ижтимоийлашувининг психологик механизми”: монография// “Тошкент кимё-технология институти”. Ташкент: Наврӯз, 2018. 124 с
7. Шоумаров Ф.Б. Ниқоҳдан ташқари алоқаларнинг келиб чиқиши сабаблари ва унинг олдини олиш чоралари// Ўзбек оиласининг этнопсихологик муаммо –лари. – Респ. илмий-амалий анжумани маъruzalari қисқача баёни. – Т., 1993. – Б. 160-168.
8. Madaminova F.B. Farzand tarbiyasida ota-onaning roli//»Science and Education» Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2. – Б. 978-980.
9. Berdiyeva D.R. Farzand tarbiyasida ota-onaning roli//»Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences» SJIF 2022:– Б. 1043-1049.